



**Yashnobod tumanida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlari bilan  
uchrashuv bo'yicha  
08/04 -sonli yig'ilish  
BAYONI**

**8-aprel 2026-yil**

**Yashnobod tumani**

**Raislik qiluvchi:**

- **S.Sherov** – “O’zmilliybank” AJ Yashnobod  
BXM boshqaruvchisi

**Ishtirok etuvchilar**

**A.Umaraliyev**–“O’zmilliybank” AJ  
Yashnobod BXM boshqaruvchi o’rinbosari.

**Taklif etilganlar**

O’zmilliybank” AJ “Yashnobod” Bank  
xizmatlari markazi yuridik mijozlari va tadbirkorlar

**KUN TARTIBI:**

**O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 07 sentabrdagi “Kichik  
biznesni uzluksiz qo’llab-quvvatlash kompleks dasturini takomillashtirish  
chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-312-sonli Qarori yuzasidan.**

*(Sherov, Umaraliyev, Abdumominov)*

“O’zmilliybank” AJ Yashnobod bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi  
S.Sherov boshchiligida, O’zmilliybank Yashnobod BXM majlislar zalida bevosita 8  
ta tadbirkorlar bilan uchrashuv bo’lib o’tdi.

Yig’ilishda kun tartibidagi masalalar yuzasidan “O’zmilliybank” AJ  
Yashnobod bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi S.Sherov so’zga chiqib,

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yildagi 07-sentabrdagi “Kichik  
biznesni uzluksiz qo’llab- quvvatlash kompleks dasturini takomillashtirish chora-



tadbirlari to'g'risida"gi PQ-312-sonli hamda 2024-yildagi 23-sentyabrdagi "Kambag'allikdan farovonlik sari dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-330-sonli qarorlari mazmun mohiyati va ushbu qarorlarga asosan mavjud imtiyozlar to'g'risida batafsil tushuntirish berib hamda Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish yuzasidan "Sayxunobod" tajribasi misolida amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha tadbirkorlarga ma'lumotlar berdi.

Yig'ilishda tadbirkorlik subektlarining bank muassasalari bilan o'zaro munosabatlarida ochiqlik, shaffoflik va qonuniylilikni ta'minlash, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish hamda moliyaviy xizmatlar ko'rsatish jarayonida asossiz to'siqlarga yo'l qo'yimaslik masalalari muhokama qilindi.

Ta'kidlandiki, kredit ajratish, hisob-raqamlar ochish, to'lovlarni amalga oshirish, kafolat va boshqa bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarida qonunchilik talablariga qat'iy rioya qilinishi, ortiqcha hujjat talab qilish yoki noqonuniy shartlar qo'yilishiga yo'l qo'yilmasligi shart.

Shu bilan birga, tadbirkorlik sub'ektlari va bank xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuviga, noqonuniy moddiy yoki nomoddiy manfaatdorlik holatlariga yo'l qo'yimaslik zarurligi alohida qayd etildi.

Korrupsiyaviy holatlar yoki noqonuniy talablar aniqlangan taqdirda, belgilangan tartibda vakolatli organlarga murojaat qilish hamda murojaatlarni ko'rib chiqishning shaffof mexanizmlaridan foydalanish tartibi tushuntirildi.

Qabul davomida 8 ta tadbirkor va fuqarolar, jumladan:

|                                          |
|------------------------------------------|
| <b>RHEINOL GROUP MCHJ</b>                |
| <b>FAYZULLAYEV ABDUMO'MIN XAKIMOVICH</b> |
| <b>DJUMANOV SHERALI XASANOVICH</b>       |
| <b>"KOMPRESSOR AZIA" MCHJ</b>            |
| <b>MYMODA MCHJ</b>                       |
| <b>DIVINA FAYORA MCHJ</b>                |
| <b>RIMFAR MCHJ</b>                       |
| <b>VEXORA PHARM MCHJ</b>                 |

kabi xo'jalik yurituvchi subyektlar ishtirok etib, ular tomonidan turli xil murojaatlar va takliflar bildirildi.

a) **RHEINOL GROUP MCHJ kreditga ehtiyoji borligini bildirdi.**

b) **FAYZULLAYEV ABDUMO'MIN XAKIMOVICH kreditga ehtiyoji borligini bildirdi.**



c) **DJUMANOV SHERALI XASANOVICH kreditga ehtiyoji borligini bildirdi.** Shundan so'ng, "O'zmilliybank" AJ Yashnobod bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi S.Sherov tashkil qilingan uchrashuvga kelgan mijozlarning muammo va takliflarini muhokama qilib, quyidagilarni qo'shimcha qildi: tadbirkorlarga kiberxavfsizlik masalalari tushuntirishlar berildi; Xususan, so'nggi paytlarda internet orqali sodir etilayotgan firibgarlik holatlari keskin oshib borayotgani, shu bois har bir tadbirkor o'zining shaxsiy ma'lumotlari, bank kartochkalari, mobil ilova parollari va bir martalik SMS-kodlarni hech kimga taqdim qilmasligi zarurligi alohida ta'kidlandi.

Shuningdek, bank xodimi sifatida tanishtirib qo'ng'iroq qilayotgan yoki xabar yuborayotgan shaxslarga ishonmaslik, shubhali havolalar (ssilkalar) orqali ma'lumot kiritmaslik, mobil telefonga o'rnatilgan dasturlarni faqat rasmiy manbalar orqali yuklab olish kabi muhim talablar tushuntirib o'tildi. Tadbirkorlarga o'z hisobvaraqlaridagi operatsiyalarni muntazam kuzatib borish, noaniq tranzaksiya aniqlangan taqdirda darhol bankka murojaat qilish lozimligi haqida ko'rsatmalar berildi. Kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilish tadbirkorlik faoliyatidagi moliyaviy xatarlarni kamaytirishi va firibgarlik holatlarini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etishi qayd etildi. ijrosini ta'minlash maqsadida bank xodimlariga vazifalar yukladi.

"O'zmilliybank" AJ Yashnobod bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi S.Sherov tomonidan bank xodimlariga tadbirkorlarning murojaatlarini ko'rib chiqish va o'rnatilgan tartibda tegishli choralar ko'tarish yuzasidan topshiriqlar berdi.

Yig'ilish kun tartibidagi masalalar muhokamasidan so'ng, bildirilgan taklif va muloxazalardan kelib chiqib, yig'ilish

#### **QAROR QILADI:**

1. Kun tartibidagi masalalar yuzasidan mavjud ma'lumotlar va ma'ruzada ko'rib chiqilgan masalalar ma'lumot uchun qabul qilinsin;
2. Tadbirkorlar tomonidan taqdim etilgan muammolar bo'yicha ularni zudlik bilan ko'rib chiqish, hamda Toshkent shahar Yashnobod tumaniga tegishli va vakolat doirasida mavjud muammolarni ko'rib chiqish ishlarini amalga oshirish;
3. Mazkur sayyor qabul bayoni ijrosini nazorat qilishni "Yashnobod" Bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi o'rinbosari A.Umaraliyev zimmasiga yuklatilsin.

**Bayonlashtiruvchi**

**A.Xujamurodov**

